

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR TA'LIMIDA DAKTIL NUTQINING O'RNI

Mamatova Zilola

Bolbekova Nodira

Xudoyorova Mahliyo

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Pedagogika va psixologiya fakulteti

Maxsus pedagogika (surdopedagogika) yo'nalishi

Annotatsiya: Og'zaki nutq inson jamiyatida ilk nutq shakli sifatida namoyon bo'lgan. Dastlabki so'zlar tovush komplekslar shaklida bo'lib, tarixiy rivojlanish davrida ma'lum tushunchalar sifatida aniqlanib, mustahkamlanib borgan. Bolani og'zaki, yozma, daktil nutq turlariga o'rgatish masalalarini o'rganamiz.

Kalit so'zlar: lug'at, nutq, so'z, rivojlangan nutq, karlik, zaif eshituvchilik, turg'un karlik, ortirilgan karlik, eshitishning turg'un pasayishi.

Аннотация: Устная речь возникла как первая форма речи в человеческом обществе. Первые слова имели форму звуковых комплексов, а в период исторического развития определились и закрепились как определенные понятия. Мы изучим вопросы обучения ребенка устной, письменной, дактильной речи.

Ключевые слова: словарный запас, речь, речь, развитая речь, глухота, нарушение слуха, врожденная глухота, повышенная глухота, стойкая тугоухость.

Abstract: Oral speech appeared as the first form of speech in human society. The first words were in the form of sound complexes, and during the period of historical development, they were defined and strengthened as certain concepts. We will study the issues of teaching a child to oral, written, dactyl speech.

Key words: vocabulary, speech, speech, developed speech, deafness, hearing impairment, congenital deafness, increased deafness, permanent hearing loss.

Kirish

Maxsus pedagogika tarmog'i surdopedagogika (lot. «surdus»-karlik), eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar va katta kishilarning rivojlanishi, ularga ta'lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan (maxsus pedagogika tarmog'i). Eshitishda nuqsoni bo'lgan ilk va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning rivojlanishi, ularga ta'lim-tarbiya berish jarayonlari va qonuniyatlari maktabgacha surdopedagogika fanining predmeti hisoblanadi. Maktabgacha davr eshitishda nuqsoni bo'lgan bolaning rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir, zero korreksionpedagogik tadbirlarning barvaqt boshlanishi bola o'sishidagi kamchiliklarining oldini olishga, shuningdek, ijtimoiy faol, har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yordam beradi. Maktabgacha surdopedagogikaning alohida fan sifatida o'rganilishi, eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning yosh davrlariga xos jismoniy, psixik va fiziologik xususiyatlarning mavjudligi, bolalar turmushini tashkil etish va qulay ta'lim-tarbiya shart-sharoitlarini yaratishda ushbu omillarni hisobga olish zarurligi bilan belgilanadi.

Eshituvchining yaqqol va turg'un pasayishi nafaqat nutqni idrok qilish, balki ekspressiv nutqning buzilishiga (yoki rivojlan-masligiga) ham olib keladi. Bu holda har bir

aniq holatda ekspressiv nutqning buzilishi (rivojlanmaganligi) darajasi eshitishning pasayishi darajasiga (daraja qanchalik og'ir bo'lsa shunchalik yomonlashadi), zaif eshitishning boshlanish vaqtiga, bola rivojlanishining shart-sharoitiga (nutqning rivojlanishi va saqlanishi bo'yicha maxsus choralarni qo'llash uning birmuncha yaxshi holatini ta'minlaydi) bog'liq bo'ladi.

Eshituvchi pasaygan bolalar uchun bevosita eshitish kamchiligi bilan bog'liq nutq komponentlarining (tarkibiy qismlar) shakllanma-ganligi xosdir. barcha tomonlarini qamrab oladi. Biroq, zaif eshituvchilarda eshituv funksiyasi holati bilan bog'liq bo'lmagan nutqiy kamchiliklarning shakli ham kuzatiladi. Bo'lar duduq-lanish; nutq tempining buzilishi, rinolaliya, optik disgrafiya va disleksiya, dizartriya, mexanik dislaliya, ovoz buzilishi, alaliya, erta bolalar afaziyasi.

Fonetik-fonematik buzilishlar

Fonematik tizimning normal faoliyat ko'rsatishi barcha nutq tovushlarining bexato eshituv differensatsiyasi imkoniyatini (akustik jihatdan yaqin tovushlarni qo'shganda ham) va ularning to'g'ri talaffuzini ko'zda tutadi. Fonetik tizim holatini harakterlovchi bu ikki tomon, erta paydo bo'lgan zaif eshitishda normal shakllana olmaydi.

Birinchi darajadagi zaif eshituvchi bolalar quloq suprasi yaqinida, odatdagi suhbat balandligidagi ovozda talaffuz qilingan 75% ko'p bo'lmagan undoshlarni farqlaydilar. Bunda quloqdan 0,5 m. masofadagi uzoqlikda undoshlarni farqlash 60% gacha pasayadi, 2m. masofada esa hatto 40% gacha farqlash imkoniyati pasayadi, bunday sharoitda bog'langan nutqni idrok qilish imkoniyati faqat nutqni to'liq egallagan bolaning o'zida mavjud bo'lgan so'z va iboralarning yaxlit obraziga tayanganligi sababligina sodir bo'ladi. Bunda bola so'z va iboradagi yetishmaydigan qismini angelaydi (ko'pincha xato angelaydi). Agarda bola mukammal nutqga ega bo'lmasa, bunday anglash imkoniyati bo'lmaydi. Shu sababli bir xil darajadagi (biroq nutqiy rivojlanishi turli darajada bo'lgan) zaif eshituvchi bolalar nutq tovushlarini turlicha payqaydilar. Aynan xuddi shu sabab tufayli bir xil darajadagi zaif eshitish holatida tovushlarni eshitish differensatsiyasi holati birinchi bo'lim o'quvchilariga qaraganda II bo'lim o'quvchilarida nisbatan yomonroqdir.

Bundan tashqari bu nutqning shaklini kar bola ruhiy energiyani ishlatsa, og'zaki nutqni shakllantirishda ko'proq ruhiy energiya sarflanadi. Shu sababli eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda yozma nutqni egallash og'zaki nutqni egallash bilan parallel yoki undan oldinroq davom etadi. Yozma nutqni qo'llash vositasi harf sanaladi. Yozma nutqni egallash savodga o'rgatish, harf yozish va tovush analiz va sintezini amalga oshirishni ko'zda tutadi.

Lekin yozma nutq og'zaki nutq asosida shakllanadi va rivojlanadi. Og'zaki nutqni, tilning tovush tarkibini egallagan bola nutqiy oqimni aniqlashi mumkin. Boshqa tomondan yozma nutqni egallash og'zaki nutqni egallashga olib keladi. Yozuv so'zning tovush tarkibini aniqlash, fikrlarning aniq ifodalanishiga olib keladi. Ta'lim amaliyotida yozuv va o'qishning turli buzilishlari uchraydi (xususan, yozma nutq va o'qish jarayonlari buzilishlari, disgrafiya, disleksiya, agrofiya). Disgrafiya bola yozuvda ayrim harflarni tushirib qoldiradi yoki almashtiradi hamda yozuvda so'zlar o'rtasiga boshqa harflarni qo'shib yozadi. Disleksiyada harflarni ommalashtirib, tushirib qoldirib o'qiydi. Daktilologiya kar va zaif eshituvchi bolalar nutqining o'ziga xos shaklidir. U so'zlashuv nutqiga imo-ishora nutqiga nisbatan yaqindir. U yozma harakatga ko'ra yozma nutqqa o'xshab ketadi. Uning vositalari grafik belgilar harflar emas, balki qo'l, barmoq harakatlari hisoblanadi. O'zbek tilining har bir harfi o'zining harakatli ifodasiga egadir. Kar bolalarga daktil belgilarini uch guruhga tasniflash mumkin:

- 1) chizuvchi harflar (z, b, d);
- 2) harf shaklini ifodalovchi harflar (o, l, m, t);
- 3) shartli belgilar (v, j, n).

Daktil nutqi so'zlashuv nutqining barcha qoidalariga ko'ra shakllanadi va uni kar bola egallashi mumkin. Bog'cha davrida kar bola daktilologiyaga savod o'rganish uchun murojaat qiladi. Tadqiqot ko'rsatishicha, daktilologiya eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirish uchun yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar tomonidan keng qo'llaniladigan imo-ishora nutqi muloqotga ehtiyoj yuzaga kelish natijasida namoyon bo'ladi. Kar bola qo'llaydigan tabiiy dastlabki imo-ishoralarda juda sodda bo'ladi. Masalan, u biror narsani xohlasa, uni qo'li bilan ko'rsatadi. Asta-sekin bu jarayon murakkablashib boradi, shartli xarakterga ega bo'lib, muloqot funksiyasini bajara boshlaydi. So'zlashuv nutqidan farqli, imo-ishora nutqi ko'ruv va harakat sezgilari asosida namoyon bo'ladi. So'zning realizatsiya vositasi tovush yoki grafik qobiq bo'lsa, imo-ishora nutqining vositasi qo'l harakatlari va unga mos yuzning mimik ifodalari. Bizning nutqimiz ikki funksiyani bajaradi: muloqot vositasi va tafakkur quroli. Ma'lumki, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar imo-ishora yordamida muloqotga kirishadilar. Imo-ishora nutqi atrof-olamni tushunishga yordam beruvchi vosita sanaladi. Masalan, oilada kar bola imo-ishora nutqidan foydalangan holda tarbiyalanadi, lekin uning rivojlanish darajasi yuqori bo'ladi. Shunday qilib, imo-ishora eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun muloqot funksiyasini bajarishini ta'kidlash joiz. Bu jihatdan u og'zaki nutq shakliga o'xshashdir. Ko'p olimlar mimik belgilarni tasniflashga harakat qilganlar (N.G. Morozova, R.M.Boskis, L.V.Zankov, G.L.Zayseva, N.F. Slezina). Ularning ilmiy ishlari natijalariga tayanib mimik belgilarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1 Ko'ruv sezgisiga asoslangan belgilari:

- a) ko'rsatuvchi ishning belgilari (burun, ko'z, stol, shkaf, u);
- b) predmet konturi yoki uning xarakterli xususiyatlarini ko'rsatuvchi mimik belgilar (yulduz, g'oz, ona);
- d) to'liq yoki qisman imitatsiya qiluvchi xarakterlar.

Idrok etilayotgan tovushlar chastotasining doirasiga qarab 4 guruhdagi kar bolalar farqlanadi:

1-guruh eng past chastotali tovushlarni idrok etadigan bolalar (125-250 Gs).

2-guruh 500 Gs gacha bo'lgan chastotalarni idrok etadigan bolalar.

3-guruh 1000 Gs gacha bo'lgan chastotalarni idrok etadigan bolalar.

4-guruh keng diapazondagi chastotalarni, ya'ni 2000 Gs va undan balandroq tovushni idrok etadigan bolalar.

Eshitish qoldiqlari minimal bo'lgan (1-2 guruhdagi) kar bolalar yaqin masofadan qattiq tovushlarni (baqiriq, parovoz qichqirig'i, nog'ora ovozi) idrok etishga qodir bo'ladilar. 3-4 guruhdagi kar bolalarning eshitish qoldiqlari sezilarliroq bo'ladi, shu sababli ular kichik masofadan turli chastotalar ovozlari (turli musiqa asboblari va o'yinchoqlar, hayvonlarning qattiq hayqirishi, ayrim maishiy tovushlar: qo'ng'iroq, telefonning jiringlashi)ni idrok etib, farqlay oladilar. 3-4 - guruh kar bolalar tanish bo'lgan bir nechta so'z yoki bo'g'inlarni farqlay oladilar. Shunday qilib, barcha kar bolalar turli miqdordagi eshitish qoldiqlariga ega bo'ladilar. Maxsus eshitish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar borliqdagi tovushlarni bilishga xizmat qiladi hamda og'zaki nutqni rivojlantirishga yordam beradi. Hozirgi kunda tibbiyot muassasalarida eshituv holatini baholashda Xalqaro tasnif ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ushbu tasnifga ko'ra eshituvning o'rtacha pasayishi 500, 1000, 2000 Gs chastotalarda aniqlanadi. Zaif eshituvning 1-darajasi eshituvning pasayishi 40 db dan oshmaydi. Zaif eshituvning 2-darajasi eshituvning pasayishi 40 db dan 55 db gacha bo'ladi. Zaif eshituvning 3-darajasi eshituvning pasayishi 55 db dan 70 db gacha bo'ladi. Zaif eshituvchilikning 4-darajasi eshituvning pasayishi 70 db dan 90 db gacha bo'lishi bilan ifodalanadi. Eshituvning pasayishi 90 db dan o'tib ketsa, bunday holat «karlik» deb tafsiflanadi.

Xulosa: Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar o'quv faoliyatining asosiy nuqsonlaridan biri ular o'z oldiga qo'yilgan maqsani anglay olmaydilar, mustaqil ishlash malakasiga ega bo'lmaydilar. Ta'lim o'quvchilarni mustaqil ta'limga tayyorlaydi. Ta'lim jarayonida ularning nutq shakllarini ham o'zlashtirib borishadi. Maktab yoshida kar o'quvchilar xilma-xil faoliyat turiga ega bo'ladilar, ular navbatchilik qiladilar, to'garaklarga qatnashadilar, bog'larda ishlaydilar. Psixologik tadqiqotlarda aniqlanishicha, kar bola yuqori maktab yoshigacha yagona tajriba, bilim va ommaviy malaka shakllanishida katta qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyot va qo'llanmalar ro'yxati:

1. Ibragimovna, Turg'unboyeva Zulxumor. "zaif eshituvchi o'quvchilarni nutqiy sifatlarining rivojlanish xususiyatlari." Science Promotion 1.2 (2023): 131-138.
2. Shahnigor, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Khomidova. "Formation of knowledge, skills and competences in the process of training children with hearing defects To work." Confrencea 3.03 (2023): 188-192.
3. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "cochlear implantation: an innovation in the development of technology, medicine, deaf pedagogy and speech therapy." Open Access Repository 4.2 (2023): 321-330.
4. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Rustamova Feruzabanu. "Contribution of charles mikhail epe to the education of deaf children." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.3 (2023): 563-566.
5. O'ghiloy, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Kurbanuva. "Children with local movement defects." Confrencea 3.03 (2023): 226-230.